

8-26-2020

THE CURRENT IMPORTANCE OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART

Jahongir Sobirovich Batirov

lecturer, department of fine arts and engineering graphics, BSU

Sherali Naimovich Avezov

lecturer at the department of fine arts and engineering graphics, BSU

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>



Part of the [Arts and Humanities Commons](#)

Recommended Citation

Batirov, Jahongir Sobirovich and Avezov, Sherali Naimovich (2020) "THE CURRENT IMPORTANCE OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART," *Scientific reports of Bukhara State University*. Vol. 4 : Iss. 4 , Article 4.

DOI: 10.52297/2181-1466/2020/4/4/4

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss4/4>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

УДК: 31.013.73

O'RTA ASR MUTAFAKKIRLARINING SAN'AT HAQIDAGI FALSAFIY VA
PEDAGOGIK QARASHLARINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATIСОВРЕМЕННАЯ ФИЛОСОФСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПЕРСПЕКТИВА
СРЕДНЕВЕКОВЫХ ХУДОЖНИКОВTHE CURRENT IMPORTANCE OF THE PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL
VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART OF THE PHILOSOPHICAL AND
PEDAGOGICAL VIEWS OF MEDIEVAL THINKERS ON ART**Batirov Jahongir Sobirovich***BuxDU tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida o'qituvchisi,***Avezov Sherali Naimovich***BuxDU tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasida o'qituvchisi***Batirov Jahongir Sobirovich***lecturer, department of fine arts and engineering graphics, BSU,***Avezov Sherali Naimovich***lecturer at the department of fine arts and engineering graphics, BSU*

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda O'zbekiston va mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari maktablarida rasmni o'qitish jarayonidagi yutuqlarini tanqidiy o'zlashtirish va barcha yaxshi tomonlarini hayotga tatbiq etish talabi oshib borishi va bularning hammasi Sharq miniatyura san'ati tarixi va taraqqiyotini umumlashtirish va shu asosda tarixiy obzor yaratishiga olib kelayotgani haqida so'z yuritilgan. San'atning uslubiy mohiyati, uning estetik quvvati hozirgi zamon talabiga to'g'ri to'g'ri taalluqli bo'lishi haqida aytib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: maktablar, rasm, o'qitish jarayoni, sharq miniatyura san'ati, tarixi, taraqqiyot.

Аннотация. В статье изложены мнения о росте потребности в критическом обучении и внедрении всего лучшего в живописи в школах Узбекистана и стран Содружества, которые обобщают историю и развитие искусства восточной миниатюры и, следовательно, дают исторический обзор. Говорится о том, что стилистическая сущность искусства, его эстетическая сила напрямую связаны с современными требованиями.

Ключевые слова: школы, живопись, учебный процесс, искусство восточной миниатюры, история, развитие.

Abstract. In the article, there is a growing demand for critical learning and implementation of all the best in painting in schools in Uzbekistan and the Commonwealth countries, all of which summarize the history and development of Oriental miniature art and, therefore, provide a historical overview. It is said that the stylistic essence of art, its aesthetic power, is directly related to modern requirements.

Keywords: schools, painting, learning process, oriental miniature art, history, development.

Kirish. Miniatyura san'ati o'zining boy tarixiga ega. Miniatyura san'ati Sharq xalqlarining o'ziga xos rang-tasviri va o'zining badiiy estetik, ma'naviy-ma'rifiy qiymati bilan umumbashariy qadriyatlar tarixida o'zining munosib o'rniga egaligi bilan ajralib turadi. Miniatyura san'ati oktabr inqilobidan so'ng kamsitila boshlagani san'at ahliga sir emas. XX asrning 80-yillari boshlaridan e'tiboran respublikamizda bu san'at turiga alohida e'tibor berilla boshladi. Ayniqsa, mustaqillik sharofati bilan ushbu san'at turini o'rganishga keng yo'l ochildi. O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahoniy shuhrat qozongan nafis maktablarning noyob an'alarini avaylab-asrash, o'rganish, boyitib borish, milliy tasviriy miniatyura san'atimizning nodir durdonalarini dunyo minbariga olib chiqish, ta'lim-tarbiya jarayonida avlodni tarbiyalashda vatanga sadoqat, g'urur tuyg'ularini shakllantirish kabi foydali zarur ko'rsatmalar o'z aksini topgan [1].

Ushbu san'at muammolariga bag'ishlangan darslik va o'quv qo'llanmalar anchagina. Lekin mavjud kitoblarda miniatyura tarixining ma'lum bir jihati yoritilgan yoki san'atshunoslik nuqtayi nazardan tavsif berilgan, xolos. Shu sababli o'qituvchi va talabalar miniatyura san'atiga oid ma'lumotlarni turli kitob va jurnallardan izlashadi.

O'rta Osiyo va O'zbekistonda tasviriy san'at o'qitish tarixi va metodikasiga katta e'tibor qaratilgan, ayniqsa, o'zbek xalqining bebaho rang-tasvir durdonasi – miniatyura san'atiga [2].

Davrimiz talabi nuqtayi nazaridan qaralganda ham mazkur fan uchun zarur qo'llanmalar yaratish va ularni bu soha mutaxassislari hamda talabalar e'tiboriga havola etish foydadan xoli emas. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lgan sharq rang-tasvirining o'ziga xos janri olim-uslubshunos metodistlarning e'tiboridan chetda qolib kelgan. Shu sababli taniqli olim-pedagog, oliy va o'rta badiiy pedagogik ta'limning tashkilotchilaridan biri N.N.Rostovsev o'zining «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» kitobida tadqiqotchilar oldiga bevosita vazifa qo'yib, shunday yozadi: «Qadimgi Xitoy, Hindiston va boshqa qadimgi sharq madaniyati masalalarini ko'rib o'tmaymiz, chunki ularning madaniyatidagi spetsifik va o'ziga xos san'atlarini o'rganish talab etiladi».

Haqiqatan ham, sharq miniatyurasining o'ziga xos badiiy-obrazli tili tasviriy san'atning bu turini o'rganishga jiddiy yondashishni, o'quvchi yoshlarning badiiy ta'lim va estetik tarbiyasida sharq miniatyurasidan foydalanishda o'qitish metodikasini ishlab chiqish masalalariga alohida yondashishni talab qiladi.

Talabalarga Markaziy Osiyo xalqlarining tasviriy san'atini o'qitishning tarixi va nazariyasi haqidagi bilimlarni bermay turib, bo'lajak rassom-pedagoglarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi bo'yicha chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirish mumkin emas. Bu borada N.N.Rostovsevning Qadimgi Misr, Gretsiya, Rim, O'rta asrlar, Garbiy Yevropa va Rossiyada tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi va nazariyasini tarixiy va sotsiologik tarzda ochib bergan chuqur tadqiqotlari misol bo'la oladi. Bu borada Markaziy Osiyo badiiy tasviriy va dekorativ amaliy faoliyati bo'yicha mintaqada sharq miniatyurasini o'qitish metodlari tarixi bo'yicha tadqiqotlar kam, ilmiy-metodik apparat, darslik va o'quv qo'llanmalari, o'quv uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyanomalar, o'rta maxsus badiiy maktablar, gimnaziya, litsey, pedagogika bilim yurti, universitet va pedagogika institutlarining san'at fakultetlari uchun mo'ljallangan o'quv darsliklari yoq.

Hamdo'stlik mamlakatlari rassom-pedagoglari uchun san'at tarixi kurslariga sharq miniatyurasi mavzulari kiritilmagan. Shu sababli bugungi kunda O'zbekiston va mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari maktablarida rasmni o'qitish jarayonidagi yutuqlarini tanqidiy o'zlashtirish va barcha yaxshi tomonlarini hayotga tatbiq etish talabi oshib boryapti. N.N.Rostovsevning bu so'ziga XV-XVI asrlardagi Hirot, Tabriz, XV-XVI asrlardagi Buxoro va Samarqanddagi ajoyib rang-tasvir maktablari, Boburiylar davri rang-tasvirining eng yaxshi yutuqlari, XVI-XVII asr Dehli, Agra va bir qator boshqa rang-tasvir maktablarning ajoyib an'analiridan foydalanish vazifalari to'liq mos keladi. Bularning hammasi Sharq miniatyura san'ati tarixi va taraqqiyotini umumlashtirish va shu asosda tarixiy obzor yaratishiga olib keladi [3].

Yosh avlodni komil inson darajasida shakllantirish uchun badiiy ta'lim va estetik tarbiya mohiyati salmoqli, jumladan, tasviriy san'atning roli haqidagi Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari olimlari fikrlari juda ham o'rinli. Ayniqsa, Abu Nasr al-Forobiyning (873-950) g'oyalari hozirgi vaqtda ham dolzarb hisoblanadi. Alloma o'z hayoti davomida matematika, kimyo, astronomiya, tibbiyot muammolari, poeziya va boshqa bir qator yo'nalishlar bo'yicha 160 dan ortiq asar yaratgan.

Uning qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Platon, Galen, Evklid va boshqalar haqida ilmiy risolalari Arab Sharqida keng tanilgan va dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilingan. Forobiyning san'at haqidagi qarashlari va uning estetik tarbiyadagi rolini Nazix Ahmad o'zining ilmiy tadqiqotlarida keng ochib bergan. Bunda tadqiqotchining Forobiy asarlarini asl nusxasidan o'rganishi pedagogik adabiyotlarda bo'lmagan juda qiziq ma'lumotlardan beradi. Forobiy uchun "Garmoniya" (hamohanglik, uyg'unlik, moslik) tushunchasi badiiy va estetik tarbiyada muhim tushuncha bo'lib, o'zida musiqa, poeziya va rang-tasvirni birlashtirar edi. Forobiy o'zining "Musika

haqida katta risola” kitobida musiqa nazariyasining ahamiyati va qo‘llanishini estetik tasavvurlarning shakllanishi, ranglar ta’siri va hid bilan bog‘laydi.

Al-Forobiy “Fan klassifikatsiyasi”ni tahlil qilib, poeziya bilan rang-tasvir aloqasining bog‘liq ekanligini, bunda u odamlarning sezgi va his xususiyatlarini ko‘ra olgan. Biz uchun eng muhim tomoni shundaki, u rasm chizish uchun amaliy tavsiyanomalar beradi. Yuqorida eslatilgan tadqiqotga tayanib aytish mumkinki, uning metodi narsaning o‘ziga qarab rasm chizishga asoslangan edi. Al-Forobiy bolaga, eng avvalo, unga tanish bo‘lgan narsalarni chizishni o‘rgatib, chizish malakalarini shakllantirishni, bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarning ijodiy xayolini (ijodiy tasavvurini) rivojlantirishiga yordam berishini ko‘zda tutgan edi. Rasmni o‘rgatuvchi o‘qituvchi yoki tarbiyachi o‘zi tanlagan yoki o‘quvchilar taklifi bilan chiziladigan obyektlar, eng avvalo, ham estetik, ham pedagogik talablarga javob berishi kerakligini doimo kuzatib borishi, ularni o‘quvchi chiza olishi va idrok etishi uchun mos bo‘lishi nazarda tutiladi. O‘quvchilardagi erkin mavzu tanlanishi va yangilik yaratishga intilishi doimo taqdirlanib borish kerak.

O‘rta asrlar Sharqda o‘qituvchilarning o‘rni haqida Al-Forobiyning fikrlarini alohida ta’kidlash kerak.

Ulug‘ mutafakkir o‘z qaydlarida shuni alohida ta’kidlaydiki, o‘qimishli o‘qituvchi o‘quv-tarbiya jarayonida yetarli bilimni faqatgina maxsus bilim olishi natijasidagina egallaydi. Bundan tashqari oldingi o‘rta asrlarda estetik tarbiyaga qanday baho berilganligi, shaxsni garmonik tarbiyalashdagi uning mavqeyini bir necha yuz yil oldin aniqlab bergan ulug‘ olim Abu Ali ibn Sino qoldirgan ilmiy merosida ham ko‘ramiz. U taklif qilgan o‘qitish va tarbiyalash mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga olgan edi. Besh yo‘nalishda:

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy sog‘lomlashtirish.
3. Estetik tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Hunarga o‘rgatish.

Ibn Sino qarashlari bo‘yicha maktabda o‘qitish va tarbiyalash quyidagi didaktik prinsiplarga tayanishi kerak edi:

- o‘qitish oddiydan murakkabga qarab borishi;
- o‘quv mashg‘ulotlari taqsimlangan bo‘lishi va qo‘ldan kelishi, kuch yetishi;
- o‘qitish jamoasi tarzida va barcha uchun umumiy bo‘lishi;
- o‘qitish bolaning qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan tarzda qo‘llanishi kerak.
- Maktab-madrasalarda o‘qitish va tarbiyalash ishining muvaffaqiyatini olim “to‘g‘ri so‘z, aqlli, adolatli, pokiza, xushmuomalali o‘qituvchilarni tanlashga bog‘laydi va ular quyidagilarga qodir bo‘lishni talab qiladi:

- o‘qitish jarayonida turli usul va shakllarni qo‘llashi;

- har bir bolaning xususiy qobiliyatini hisobga olishi;
- fanlarga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg‘otishi;
- zehni, farosatli va o‘quvchilar uchun namuna bo‘lishi va hokazolar.

“Har bir tolibni, – deb yozadi alloma – uning qobiliyati va intilishiga qarab o‘qitish, ...u uchun hunar va san’at turini belgilash zarur” – deb uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning zamondoshi Abu Rayhon Beruniy astronomiya, dorishunoslik, mineralshunoslik kabi fanlarga bag‘ishlangan 150 dan ortiq ilmiy asarlari meros sifatida barchada katta qiziqish uyg‘otgan.

Olim tabiatni bilish va o‘rganishning ilmiy uslublarini aniqlab, «Geodeziya» risolasida yozadiki, “...odam fanning biror-bir sohasi bo‘yicha qachon fikr yurgizadi, qachonki u ilmiy amaliyot bilan shug‘ullansa va tadqiqotlarida aniqlik bo‘lsa». Shu sababli Beruniy ilmiy bo‘limning uslubini olimning obyektivligiga va xolisligini ko‘rib, kuzatish, tajriba o‘tkazish, og‘zaki va yozma esdaliklarni o‘rganish, faktlarga tanqidiy yondashish, taqqoslashga asoslanishni mantiqan umumlashtirib, bir fikrga kelmoq deb hisoblaydi.

Fors-tojik adabiyotining mumtoz namoyandasi, XIII asrning buyuk insonparvari Sa’diy Sheroziyning axloqiy-estetik qarashlariga alohida to‘xtalish zarur. Bu shoirning tarbiyalash va

o'qitish nuqtayi nazaridan qaralgan ijodi G.Nuriddinovning tadqiqotlarida batafsil tahlil qilingan. Sa'diy Sheroziyda tarbiyaning yakuniy maqsadi insonparvarlikdir, deb hisoblanadi. "Inson faoliyatining biror-bir turi yo'qki, – deb belgilaydi u, – aql-idrok, fan va san'at aralashuvisiz amalga oshirilsa". "Aql-idrok, o'z navbatida, odamning aqliy rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatadiki, bu inson faoliyatining turli jabhalarida: mehnatda, fanni egallashda, san'atni o'qitishda ... zaruriyat kerak", – deb xulosa chiqaradi Sa'diy.

Alisher Navoiyning ustoz, "Bahoriston" nomli darslik kitob muallifi Abdurahmon Jomiy yozadiki: "Barcha san'atlar gulto'ji – bu bilim, barcha qiyinchiliklar kaliti – bu bilim". Jomiy san'atda va hunarmandchilikda mahorat va malakani eng yuqori o'ringa qo'yadi, bunga uning quyidagi bayti misol bo'ladi:

Odamning qiymati emas siym-u zar,

Odamning qiymati ilm ham hunar.

Xulosa. O'rta Osiyo, xususan, Buxoro maktab musavvirlar miniatyurachi rassomlari asarlarining tavsifini yakunlar ekanmiz, Sharq miniatyurachisining milliy uslubning tiklanishidan iborat o'ziga xos fazilatini alohida ta'kidlash zarur. Shunday qilib, san'atning uslubiy pishiqligi, uning estetik quvvati zamonga to'g'ridan to'g'ri taalluqli bo'lib, u bilan chambarchas bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. *Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Ilm-Ziyo, 2011. 13-b.*
 2. *Sayidaxmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999. 25-b.*
 3. *Hasanov R. Maktabda Amaliy san'at o'qitish metodikasi. Darslik. – T.: Fan, 2004. 18-b.*
-